



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3042-5
2025 - yil 23 - Aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING QARORI

Kredit byuolarini ro'yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi va 2025-yil 4-martdagi O'RQ-1043-son "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/23-son qarori (ro'yxat raqami 3042, 2018-yil 25-iyul) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.07.2018-y., 10/18/3042/1573-son) bilan tasdiqlangan Kredit byuolarini ro'yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

O‘zbekiston
Respublikasi Markaziy
banki Raisi
11-Aprel 2025-yil
9/3 son



ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

Kelishildi:

Vazirning birinchi
o'rinbosari
02-Aprel 2025-yil



UMAROV OLIMJON
MUXAMADJANOVICH

Rais
28-Mart 2025-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqaruvining
2025-yil 11-apreldagi
9/3-son qaroriga
ILOVA

**Kredit byurolarini ro'yxatga olish va ularning faoliyatini
litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan
qo'shimcha va o'zgartirishlar**

1. 5, 6 va 21-bandlar "muassislari" degan so'zdan keyin "(muassisi)" degan so'z bilan to'ldirilsin.

2. Quyidagi mazmundagi 6¹-band bilan to'ldirilsin:

"6¹. Kredit byurosi ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori ikki milliard so'mni tashkil etishi kerak."

3. 19-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"muassislar umumiy yig'ilishining kredit byurosini tashkil etish to'g'risidagi bayonnomasi yoki yagona muassisning kredit byurosini tashkil etish haqidagi qarori;"

to'rtinchi xatboshi "muassislari" degan so'zdan keyin "(muassisi)" degan so'z bilan to'ldirilsin;

oltinchi xatboshi "ustav fondi" degan so'zlardan keyin "(ustav kapitali)" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Arizada muassislarning (muassisning) elektron pochta manzili ko'rsatilishi mumkin. Arizada elektron pochta manzilining ko'rsatilishi ushbu ariza bo'yicha qabul qilingan qaror haqida xabarnomani axborot tizimi orqali elektron shaklda olishga rozilik hisoblanadi."